

THE STUDY OF APHORISMS IN UZBEK LINGUISTICS

Tashpulatova Dilnoza Xolmirza qizi

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi

“Pedagogika, psixologiya va tillar” kafedrası

Ingliz tili fani o‘qituvchisi

Annotation: *Aphorisms exist both in folklore and in written literature. This article focuses on differences in the content of aphorisms, semantic-structural features, and cultural similarities and differences in the comparative research of aphorisms.*

Key words: *paremia, folk aphorisms, differential feature, mass actualization, reproductive feature, folk art.*

ИЗУЧЕНИЕ АФОРИЗМОВ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация: *Афоризмы существуют как в фольклоре, так и в письменной литературе. В данной статье основное внимание уделяется различиям в содержании афоризмов, семантико-структурным особенностям, а также культурным сходствам и различиям в сравнительном исследовании афоризмов.*

Ключевые слова: *паремия, народные афоризмы, дифференциальный признак, массовая актуализация, репродуктивный признак, народное творчество.*

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA AFORIZMLARNING O‘RGANILISHI

Annotatsiya: *Aforizm xalq og‘zaki ijodida ham, yozma adabiyotda ham mavjud. Bu maqolada aforizmlarni qiyosiy tadqiqi bo‘yicha amalga oshirilgan ishlarda farqlar aforizm mazmuni, semantik-struktur xususiyatlari hamda madaniy jihatdan o‘xshash va farqli tomonlariga e‘tibor qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *paremiya, xalq aforizmlari, differensial xususiyat, ommaviy aktuallashtirish, reproduktivlik xususiyat, xalq og‘zaki ijodi.*

Aforizmlar muallifining mavjudligiga ko‘ra muallifi mavjud va muallifi noma‘lum yoki xalqniki kabi turlarga bo‘linib, tadqiqotlarda maqollarni ham xalqning muallifligidagi aforizm sifatida ham talqin qilib kelinadi. Xalq og‘zaki ijodi mahsuli bo‘lgan maqollarni o‘rganishga oid ilmiy izlanishlar xorijda amalga oshirilgani kabi yurtimizda ham shunday qimmatli tadqiqotlar amalga oshirilgan.

XX asrning 90-yillarida esa prof. B. Sarimsoqov aforizmlarni maqol, matal, topishmoq, qanotli so‘z va iboralar, paradokslar, epigrammalar, xokkular, gnomalar, fard va

muammolar mansub bo'lgan yangi – to'rtinchi adabiy turga mansub, deb ko'rsatadi. Bu adabiy tur esa paremiya deb nomlanadi.¹¹

Folklor aforizmlari o'zbek folklorshunosligida maxsus o'rganilgan.¹² Ammo yozma adabiyotdagi, ya'ni adabiy aforizmlar hozirga qadar tadqiq etishda nazardan chetda qolgan o'rinlar etarlicha topiladi. Holbuki, og'zaki va yozma aforizmlar o'rtasida muayyan darajada mushtarakliklar bo'lsa ham, biroq ularning o'ziga xosliklari mavjudki, bevosita ana shu «o'ziga xosliklar» jiddiy o'rganilishi, ilmiy dalillar asosida isbotlanishi zarur. Biz mazkur tadqiqotimizni bevosita ana shu masalada mulohaza yuritishdan boshlashni ma'qul ko'ramiz.

Ushbu masalada biz quydagi ikki etakchi xususiyatni alohida ta'kidlab ko'rsatishni lozim topamiz.

Birinchisi – og'zaki aforizmlar xalqning, ommaning, ko'pchilikning u yoki bu narsa, shaxs yoki xodisa haqida haqidagi xulosasini qat'iy hukm tarzida ifodalaydi. Yozma adabiy aforizmlar esa muayyan shaxlar, narsa yoki hodisalar haqidagi alohida ijodkorlarning fikrlarini ifodalaydi.

Xalq aforizmlarida ifodalangan dono fikrni inkor etish, unga o'zgartirish kiritish qiyin, ular og'izdan-og'izga o'tib yashaydilar va ba'zan variantlilikka ham ega bo'lishlari mumkin. Yozma adabiy aforizmlar yakka ijodkorlarning dono fikrlari bo'lganliklari uchun ularga e'tirozlar bildirishlari ham mumkin, ko'pchilik tomonidan bir xil qabul qilinmasliklari ham mumkin. Qolaversa, ular yozma manbalarda aniq qayd etilganliklari sababli hech qanday o'zgartirishlarga uchramay etib keladi. Umuman olganda, aforizmlar tabiati haqida rang-barang fikr-mulohazalar bildirilgan.

Aforizmlar tabiati haqida yuzaga kelgan har xil qarash va mulohazalarning o'ziga xos sabablari bor. Birinchidan, mazkur janr dunyo xalqlarining barchasida mavjud va ular haqida dunyo paremiologiyasida ko'plab fikr-mulohazalar bildirilgan. Ikkinchidan, aforizmlarning badiiy shakli masalasida yagona hukmron fikr yoki konsepsiya yo'q. kimdir aforizm chuqur mazmunli, nasriy shaklda ixcham ifodalangan dono fikr deb ta'rif bersa, yana kimdir ushbu ta'rifga nazmdagi ifodalarni ham qo'shadi. Uchinchidan, ko'pchilik olimlar aniq muallifga ega bo'lgan chuqur mazmunli, ixcham ifodaga ega bo'lgan hikmatli gaplarni aforizm deb hisoblasa, ayrimlar aniq muallifga ega bo'lmagan qanotli ifodalarni ham ushbu janr tarkibiga kiritadilar.

Adabiyotshunoslik terminlari izohiga bag'ishlangan boshqa bir lug'atda ham shunga o'xshash tavsifni uchramiz: «aforizm (yunoncha – dono gap) – qisqa, sayqallangan shaklda, favqulodda ifodaviyligi va kutilmagan hukmi bilan ajralib turuvchi, biror muallifning chuqur umumlashtiruvchi fikri. Aforizm maqoldagidek biror narsani isbotlamaydi, asoslamaydi, ammo kishi ongida o'zining betakror ifodaviyligi bilan ta'sir ko'rsatadi. Aforizmning ifodaliligi tarkibidagi so'zlarning miqdoran kamayishi bilan

¹¹ Sarimsoqov B. Adabiy turlar haqida mulohazalar // O'zbek tili va adabiyoti. – 1993 – 5-son. B. 3-13.

¹² Абдурахимов М. Фолклорная афористика и словарь. – Т.: Фан, 1980.

kuchayadi. Aforizm jozibadorligining sir-asrori uning bevosita aytilgan fikridan ko'proq fikr bildirishidadir. Uning haqiqiy ma'nosi tahlil orqali ochiladi. Aforizmning maqoldan farqi aniq muallifga egaligi, muqarrar ravishda voqea bo'ladigan hukmidadir"¹³ Eng avvalo, shuni aytish kerakki, aforizm yaratish barcha qalam ahlining qo'lidan keladigan ish emas. Aforizm yaratish uchun ijodkor hayotni, inson va umrining foniyiligini falsafiy anglashi, ezgulik va yovuzlikning o'tkinchi va voqeligi, qadr va qadrsizlikning, sevgi va nafratning mohiyatini chuqur his etishi zarur; ular haqida o'zining xulosasiga ega bo'lishi lozim. Bundan tashqari, u ana shu aytilgan bir-biriga zid mohiyatli narsalar haqidagi fikrlarini kishini hayratga soladigan darajada ixcham, favqulodda obrazlilik bilan to'liq va tugal ifodalash iqtidoriga ham ega bo'lmog'i shart. Bu ifoda esa ma'noning chuqurligi, shaklning betakrorligi, xulosaning katta umumlasmaga egaligi bilan ham alohidalik kasb etishi lozim. Adabiyotshunoslik terminlari izohiga bag'ishlangan o'zbek tilidagi lug'atlarda ham shunga o'xshash fikrlar bildirilgan. «Aforizm (yunoncha – hikmatli so'z) – avtori ma'lum bo'lgan, chuqur mazmunli, aniq va ixcham shaklli hikmatli gap. Aforizmda so'z qancha oz bo'lsa, uning ifodaliligi, o'tkirligi shuncha ortadi. Xalq maqollaridan farqli ravishda aforizmlarning avtori hamma vaqt aniq bo'ladi. Xalq maqollari ham keng ma'noda aforizmlar deyiladi»¹⁴.

Aforizmlarga berilgan yuqoridagi izohlardan bir xil yoki bir-biriga yaqin qarashlar mavjud bo'lganligi holda terming aniq yondashish etishmaydi, ularda terminning keng yoki xususiy ma'noda qo'llanilishi ko'rsatilmaydi. Bizningcha, mazkur terminning ikki xil miqyosda ishlatilishini e'tiborga olish uning har xil talqin qilinishiga, chalkash tushunilishiga chek qo'yadi.

Shu o'rinda bir narsaga alohida e'tibor qaratish kerak bo'ladi. U ham bo'lsa shundan iboratki, hozirga qadar A.Navoiy aforizmlari bir necha marta alohida to'plamlar holda chop etildi¹⁵. Ammo ularga kiritilgan aforizmlarning ko'pgina qismi shoirning «Xamsa», «Mahbub-ul qulub», «Munshaot» kabi asarlaridan terib olingan. Albatta, tanlab olingan baytlar yoki gaplar mazmunining qamrovi, obrazlilik va shakli bilan aforizmlar talabiga to'la javob beradi. Ammo ular maxsus aforizm sifatida yaratilmaganligi bilan birinchi guruh aforizmlar talablariga javob berolmaydi.

Ikkinchi guruhga esa muayyan falsafiy izlanishlar yoki ilmiy tadqiqotlarda kelingan ixcham shaklli, kech va chuqur falsafiy mazmunli hukmlar, xulosalar sifatidagi aforizmlar mansub. Masalan, Frenses Bekonning «tabiatni talqin qilish va inson hukmronligi haqidagi aforizmlar» kabi 2 jildli kitobi, «qadimgilar donoligi haqida» nomli asarlari L.Feyrbaxning

¹³ Словарь ллитературоведпеских терминов. Редактори сосоветили Л.И. Темофеев, В.Тураев. – М., 1974. – С.23-24

¹⁴ Xotamov N, Sarimsoqov B. adabiyotshunoslik terminlarining rescha-o'zbekcha izohli lug'ati. – T., 1970. – 37.38 b.

¹⁵ Alisher Navoiy. Aforizmlar. Nashrga tayyorlovchi. Hodi Zarif. – T., 1941:Navoiy A. Aforizmlar 2-nashri. - 1948

«yozuvchi va inson», «Kulguli, falsafiy aforizmlar» to'plami F.Nisshening yovuz donolik kabi asarlari shular jumlasidandir¹⁶.

O'zbek tilshunosligida ham adabiyotshunosligida aforizm maxsus tadqiqot ob'ekti sifatida maxsus o'rganilmagan. O'zbek folklorshunosligida N.Abdurahimov lug'atlarda xalq aforizmlarini berishning yo'l va usullari haqida ilmiy izlanish olib borgan¹⁷. Lekin uning barcha qarashlarini adabiy aforizmlarga nisbatan qo'llab bo'lmaydi.

Bundan tashqari, uning tadqiqotida maqol, matal, qanotli so'zlar va iboralar shuningdek aforizmdan izchil farqlanmagan.

Ana shundagina o'quvchida aforizmda ifodalangan fikrga shubha tug'ilmaydi, aniqlab olish uchun savolga o'rin qolmaydi, qisqasi, kishi aforistik fikrga to'liq iqror bo'ladi.

A.Qahhorning «Adabiyot atomdan kuchli, lekin uning kuchini o'tin yorishga sarf qilish kerak emas»¹⁸ degan aforizmi xalqimiz orasida keng tarqalgan. Ammo bunday keskin ziddiyatga ega bo'lgan aforizmning ayni shunday shaklda, shunday ruhda aytish, bir-biriga zid, lekin mutlaqo teng bo'lmagan narsalarni keskin qarama-qarshi qo'yish orqali ifodalashni A.Qahhordek zukko, zaharxanda tilga ega bo'lgan adibgina ayta olishi mumkin, xolos. Chunki u adabiyotning ta'sir kuchini yaxshi bilgan, o'z hayotida mana shu e'tiqodga amal qilib yashagan. Shu bois u atomdan qudratli narsaning kuchini oddiy ikir-chikirlarga sarflamaslik zarurligini o'zining e'tiqodi darajasiga ko'targan adib edi.

Yoki: «Ikkita eng xolis hakam – Kitobxon va Vaqt sinovidan o'tgan asar haqiqiy asardir»¹⁹ aforizmini o'qish bilan ichki sezgimiz uning O'tkir Hoshimovga taalluqli ekanligini aytib turadi. Chunki unda faqat O'.Hoshimovga xos faylasufona talqin, nozik ifoda mavjud. Ayni shu fikrni boshqa ijodkor butunlay boshqa shakl va ruhda ifodalar edi.

Aforizmlarga nisbatan takrorlanish ikki jihatdan ko'rib chiqilishi kerak - ularning haqiqiy va potensial mulki sifatida, chunki nutqda hosil bo'lgan barcha aforizmlar keyinchalik (ham ommaviy, ham bir martalik) takrorlanmaydi. Aforizmlarni turli xil va juda ko'p to'plamlar, ensiklopediyalar, lug'atlar, alohida to'plamlar, sikllar va boshqalarning bir qismi sifatida ko'paytirish tabiatan sun'iydir, nutq aloqasiga hech qanday aloqasi yo'q va hisobga olinmasligi mumkin. Aksariyat adabiy aforizmlar boshqa birovning nutqida takrorlanmaydi, lekin ularning har biri istalgan vaqtda takrorlanishi mumkin va uning mazmunini ona tilida so'zlashuvchilar ongida (yakka tartibda yoki ommaviy) aktualashtirish tufayli ko'paytirila boshlaydi.

Reproduktivlik xususiyatini istisnosiz har bir aforizm uchun potensial xususiyat sifatida ko'rib chiqish tavsiya etiladi, ammo nutqda faqat maqollar va qanotli so'zlar, shuningdek, bir martalik iqtiboslar aforizmlari takrorlanadi. Shu ma'noda aforizmning takrorlanishi

¹⁶ Бекон Ф. Сочинения. В дух томах, Т.: - М: мисл, 1972. – с. 12-486; Фейрбах Л. писатель и человек собраните юмористических философических афоризмов / Л.Фейрбах. История философи. Собрание произвидение в трех томах. Т.1.-.. мисл,1974. – с. 415-512; Нитсше Ф. Злая мудрост. Афоризм И изричения/Ф.Нитсше. Сочинения в дух томах Т.1. –М мисл, 1990. – с. 720-768.

¹⁷ Abdurahimov M.M. foklornaya aforistika I slovar. – T: fan, 1989

¹⁸ Abdulla Qahhor, Yoshlar bilan suhbat. – T., 1958. – 140 b

¹⁹ Hoshimov O'. Daftar hoshiyasidagi bitiklar. – T., 2001. – 108 b

dualistik xususiyatga ega: funksional jihatdan (maqol, matal, iqtiboslarning real mulki sifatida) ixtiyoriy xususiyat bo'lsa, substansial ma'noda (ko'pchilik adabiy aforizmlarning potentsial xususiyati sifatida). majburiy xususiyat sifatida kvalifikatsiya qilinishi mumkin.

Ikkala holatda ham takroriylik aforizmning differentsial xususiyati emas, chunki u til va nutqning super-verbal birliklarining keng doirasiga xosdir.

Aforizmning barqarorligi nafaqat uning takrorlanuvchanligi bilan bog'liq (nutqda takrorlash orqali unga ma'lum bir shakl berilganda), balki takrorlanishiga yordam beradigan to'g'ri lingvistik omillardan biridir, chunki har bir aforizmning shakli o'ziga xos va (bor. nutqda qayta tug'ilish imkoniyati yo'q), bu uning tarkibiy qismlarining o'zgarmasligini belgilaydi (ham mazmun rejasiga, ham aforizmning bir qismi sifatida bir-biriga nisbatan), ya'ni. dastlab mavjudligi shaklni ko'paytirishga tayyor.

«Qutadg'u bilig» asarini tahlil qilish bizning vazifamizga kirmaydi. Biz uchun eng muhimi shundaki, Yusuf Xos Hojib kim, nima haqida so'z yuritmasin o'z fikrini aforistik tarzda bayon etadi. Prof. B.To'xliev ta'kidlaganidek, shoir komil inson haqida mulohaza yuritar ekan, komillikning bir qator belgilarini alohida ko'rsatadi. Shulardan biri komil insonning o'zgarlar g'ami bilan yashashi, xalq manfaatiga kamarbasta bo'lishida namoyon bo'ladi.

Kishiga to'sulg'u kerak bu tirig.

Tirig tutsa otin, ko'nursa erig.

(Tirik (jon) odamlarga foyda keltirishi kerak,

(Toki) otini tirik tutsinlar, kishini ulug'lasinlar)²⁰

Shoir komillikka erishishning bir yo'li bilim olish ekanligini qayta-qayta uqtiradi.

O'qish agar ul, biligin bedur.

Bu ikki bila er ag'irlik ko'rur.

(o'quv-idrok bilan kishi yuksaladi, bilim bilan ulg'ayadi, bu ikkisi tufayli er qadrlanadi)²¹.

Bu xildagi aforistik misra va baytlar «Qutadg'u bilig» da juda ko'p. biz ularning barchasi haqida to'xtalib o'tirmaymiz. Chunki ular ilmiy adabiyotlarda batafsil tahlilu talqin qilingan. Biz uchun muhimi shuki, adabiy aforizmlar turkiy xalqlar adabiyotida qadimdan mavjud, ularning ilk namunalari «Qutadg'u bilig» da o'z ifodasini topgan.

Tarixiy shaxslarning nasihatlarini kuzatadigan bo'lsak, xususan, Amir Temur tuzuklaridagi keltirilgan hukm va xulosalar chuqur mazmuni, sentensiozligi (pand-nasihat berishi), kelishilganlikka yaqin shakli bilan aforizm janri talablariga javob beradi. Chunki ularda birinchidan, Amir Temurdek ulug' insonning hayotiy tajribalari, kuzatish va xulosalari ifodalangan. Ikkinchidan, ularda barchaga foydali ibratomuzlik mavjud. Uchinchidan, ularning hammasida o'zgalarga o'git berish ruhi ustunlik qiladi. To'rtinchidan, ibratomuz

²⁰ To'xliev B. Bilim – ezgulik yo'li. – T.: Fan, 1990. – B. 22.

²¹ To'xliev B. Bilim – ezgulik yo'li. – T.: Fan, 1990. – B. 23.

fikrlar ixcham, хотирادا тез қоладиган shaklda berilgan. Aytilgan ana shu xususiyatlarga asoslanib, biz ularni Amir Temur aforizmlari deb atadik.

Ma'lumki, adabiy aforizmlar uzoq hayotiy kuzatishlar, ko'rgan- kechirgan voqealar ta'sirida tug'iladi. Amir Temur ham ko'pgina o'gitlarini «tajribamda ko'rilgankim», «men tajribamdan shuni bildimki», deb boshlaydi. Mana shu narsaning o'zi ularning aforizm janrining namunalari ekanligiga guvohlik beradi. «Temur tuzuklari - deb yozadi akademik B. Ahmedov, - Amir Temurning avlodlariga ijtimoiy- siyosiy faoliyatlarida asosiy qo'llanma bo'lsin deb, yozilgan o'ta muhim asardir»²².

Umuman olganda o'zbek tilshunosligida ham adabiyotshunosligida ham aforizmlarning alohida tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganilishi, ko'plab nazariy, amaliy, falsafiy axloqiy qarashlarni bir qadar o'stirishga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sarimsoqov B. Adabiy turlar haqida mulohazalar // O'zbek tili va adabiyoti. – 1993 – 5-son. B. 3-13.
2. Абдурахимов М. Фолклорная афористика и словарь. – Т.: Фан, 1980.
3. Словарь литературоведческих терминов. Редакторы составители Л.И. Тимофеев, В.Тураев. – М., 1974. – С.23-24
4. Xotamov N, Sarimsoqov B. adabiyotshunoslik terminlarining rescha-o'zbekcha izohli lug'ati. – Т., 1970. – 37.38 b.
5. Alisher Navoiy. Aforizmlar. Nashrga tayyorlovchi. Hodi Zarif. – Т., 1941:Navoiy A. Aforizmlar 2-nashri. - 1948
6. Бекон Ф. Сочинения. В дух тома, Т.: - М: мисл, 1972. – с. 12-486; Фейрбах Л. писатель и человек собраните юмористических философических афоризмов / Л.Фейрбах. История философи. Собрание произвидение в трех томах. Т.1.-.. мисл,1974. – с. 415-512; Нитсше Ф. Злая мудрост. Афоризм И изречения/Ф.Нитсше. Сочинения в дух тома Т.1. –М мисл, 1990. – с. 720-768.
7. Abdurahimov M.M. foklornaya aforistika I slovar. – T: fan, 1989
8. Abdulla Qahhor, Yoshlar bilan suhbat. – Т., 1958. – 140 b
9. Hoshimov O'. Daftar hoshiyasidagi bitiklar. – Т., 2001. – 108 b
10. To'xliiev B. Bilim – ezgulik yo'li. – Т.: Fan, 1990. – B. 22-23.
11. Qizi Turaboyeva S. Z., qizi Tashpulatova D. X. O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI AXLOQIY QADRIYATLAR MAZMUNINI IFODALOVCHI BIRLIKLARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI //Academic research in modern science. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 143-147.
12. Tashpulatova D., Siddiqova I. A CRITIQUE OF THE VIEW OF ANTONYMY AS A RELATION BETWEEN WORD FORMS //Конференции. – 2021.

²² Axmedov B. « Temur Tuzuklari » haqida ikki og'iz so'z // Temur tuzuklari. – Т., 1996. 9 b.